



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 22-aprel, chorshanba,
36 (24.216)-son

**O'zbek xalq
maqoli**

Ish qila
olmagan ish
tanlar

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz



TRANSMILLIY NARKOTAHDIDLARGA QARSHI KURASHISHDA HAMKORLIK

Samarqandda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi narkotiklar va o'qotar qurollarni nazorat qilish agentligi va Birlashgan millatlar tashkilotining narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi hamkorligida "Jamoat salomatligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashish" mavzusidagi global forum bo'lib o'tdi.



Nufuzli anjuman avvalida **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning forum qatnashchilariga murojaatini Prezident Administratsiyasi rahbari Said Mirziyoyeva o'qib eshittirdi.**

Murojaatda yurtimizda keyingi yillarda narkotiklarning noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash ko'rsatkichi 2,5 barobarga oshdi, musodara qilingan giyohvandlik vositalari 2 barobarga, yo'q qilingan sintetik narkotiklar 7 barobarga ko'paygani qayd etildi.

Birgina o'tgan yilning o'zida huquq-tartibot idoralari tomonidan 15 mingdan ziyod narkojinoyat fosh etildi, qariyb 3,5 tonna giyohvandlik vositalari, jumladan, 120 kilogramm sintetik narkotiklar yo'q qilindi, 14 ta yashirin narkolaboratoriya va 72 ta yirik internet-do'koni faoliyatiga chek qo'yildi. Joriy yilning birinchi choragida esa bu ko'rsatkich 10 tani tashkil etdi, 35 ta uyushgan narkojinoyat guruh faoliyatiga chek qo'yilib, ularning 8 nafari liderlari va 130 nafar a'zolari qo'lga olindi.

BMTning narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi ijrochi direktori Bo Matiasen o'z so'zida O'zbekistonda giyohvandlikka qarshi kurashish, aholi, ayniqsa, yoshlarni bu illatdan asrash borasida davlat tomonidan muhim dasturlar amalga oshirilayotganini ta'kidladi.

Forum shu'ba majlislarida giyohvandlik va narkotahdidlarga qarshi kurashishda ta'lim va profilaktika, xalqaro hamkorlik, giyohvandlarni davolashning samarali usullari, xavfsizlik va huquq-tartibot organlari faoliyati, narkotiklar ustidan nazoratning ilmiy-innovatsion yondashuvlari kabi mavzular muhokama qilindi.

Tadbir doirasida 2003-yildan buyon Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilayotgan Markaziy Osiyoda giyohvandlikka qarshi kurashish bo'yicha CADAP-8 (Central Asia Drug Action Programme) xalqaro mintaqaviy dasturni imzolash marosimi o'tkazildi.

Shuningdek, narkojinoyat uyushgan guruhlariga qarshi kurashishda

qo'llanilayotgan zamonaviy raqamli texnologiyalar, texnik vositalar, mahalliy ishlab chiqarilgan maxsus jihozlarni namoyish etish maqsadida xalqaro ko'rgazma tashkil etildi.

Forum doirasida **21-aprel kuni Samarqandda Birlashgan Millatlar Tashkilotining yoshlar tarmog'i va killari ishtirokida ilk bor narkotahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro yoshlar sammiti o'tkazildi.**

Sammit ochilishida **narkotiklar va o'qotar qurollarni nazorat qilish agentligi direktori o'rinbosari Jobir Azimov, Yoshlar ishlari agentligi rahbari Alisher Sa'dullayev, BMTning narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi ijrochi direktori Bo Matiasen** so'zga chiqib, ilk bor o'tkazilayotgan mazkur tadbir Markaziy Osiyo davlatlari yoshlari orasida giyohvandlik vositalari hamda psixotrop moddalar tarqalishining oldini olish, narkojinoyatlarga qarshi murosasiz kurashni davom ettirish, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilganini ta'kidladilar.



Sammitda mintaqa davlatlari yoshlari o'z loyihalari yuzasidan fikr almashib, o'sib kelayotgan mintaqa yoshlarini bu illatdan himoya qilishning yangi, samarali usullarini amaliyotga joriy qilish masalalarini muhokama qildilar.

Ushbu sammit bugungi kunning global masalasiga aylangan giyohvandlikka qarshi kurashishda Markaziy Osiyo

davlatlari yoshlarining o'zaro tajriba almashishi va hamkorlik qilishi uchun qulay maydon vazifasini o'tamoqda, — **deydi qirg'izistonlik Bayaman Bekboosunov.** — Kecha forumda mintaqa davlatlari huquq-tartibot organlari narkotahdidlarga qarshi kurashishda o'zaro hamkorlik muhimligini ta'kidlashdi va bu borada kelishuvlarga erishdi. Ushbu yo'nalishda biz — yoshlarning ham o'z loyihalarimiz, dasturlarimiz bor. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida profilaktik targ'ibot ishlarini kuchaytirsak, o'zaro tajriba almashsak, albatta, ijobiy natijalarga erishamiz. Agar bugun profilaktika ishlarini kuchaytirmasak, ertaga yirik narkojinoyatlarga qarshi kurashishimizga to'g'ri keladi.

Tadbirida o'zbekistonlik faol yoshlar tashabbusi bilan joriy qilingan **"Antinar-ko"** yoshlar front-ofislari volontyorlari harakati hamda **"AI Hackathon"** umum-milliy loyihasing internet tarmog'idagi narkodo'konlar va giyohvandlik vositalarini tarqatish holatlarini sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida aniqlash va bloklashga mo'ljallangan **"QalqonAI"**,

"Sentinel" va **"NarkoGuard"** kabi dasturlari namoyish etildi.

Sammit yakunida Markaziy Osiyo yoshlari tomonidan mintaqa davlatlarining sohaga oid faoliyat olib borayotgan rasmiylariga "Yoshlar murojaati" qabul qilindi.

G'.HASANOV, A.ISROILOV (surat).

SHAXMATIMIZ JAVOHIRI VA MALIKASI

Yaqinda Kiprda shaxmat bo'yicha 2026-yilgi «Nomzodlar turniri»da ishtirok etgan 20 yoshli shaxmatchimiz Javohir Sindorov g'alaba qozonib, shaxmat toji uchun rasmiy da'vogariga aylandi. Endi u jahon chempioni unvoni uchun joriy yil yakunida kechadigan bahsda amaldagi chempion hindistonlik Dommaraju Gukesh bilan to'qnash keladi.



Musobaqa davomida Javohir bir marta ham mag'lubiyatga uchramay, 14 ta partiyada 10 ochko to'pladi. Natijada ochkolari va g'alabalar soni bo'yicha rekordlar o'rnatdi va bu shaxmat olamida kamdan-kam uchraydigan noyob hodisa sifatida baholandi. Ushbu natija orqali Javohir FIDE reytingidagi dunyoning eng kuchli beshinchi raqamli shaxmatchisiga ham aylandi. Bundan oldin yana bir shaxmatchimiz Nodirbek Abdusattorov dunyoning eng kuchli to'rtinchi raqamli shaxmatchisi bo'lgan edi. Kiprda o'tkazilgan FIDE «Nomzodlar turniri»da rekord natijalar ko'rsatib, muddatidan oldin g'oliblikni qo'lga kiritgani uchun Javohir Sindorov Prezident farmoni bilan "Mehnat shuhrati" ordeni bilan mukofotlandi.

Ushbu g'alabalar ortidan samarqandlik yana bir shaxmatchi **Afruz Hamdamova** Serbiyaning Vrnjachka Banya shahrida shaxmatning rapid va blits yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionatida rapid yo'na-

lishida 8,5 ochko to'plab, jahon chempionligini qo'lga kiritdi. Afruz bundan oldin Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) tomonidan ayollar o'rtasida xalqaro grossmeyster (WGM) unvoniga sazovor bo'lgandi. Shuningdek, u shaxmat bo'yicha xalqaro turnirlar g'olib va sovrindori, yoshlar o'rtasida ikki karra jahon chempioni hamda "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofoti sohibasi bo'lgan.

Dunyoning eng kuchli besh shaxmatchisidan ikki nafari o'zbek o'g'loni ekanini hamda yosh shaxmatchilarimizning xalqaro maydondagi yutug'i milliy shaxmat maktabimizning salohiyati va nufuzi tobora yuksalayotganidan dalolat beradi. Bu yil sentabr oyida Samarqand shahrida o'tkaziladigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasida ham shaxmatchilarimiz o'zbek shaxmat maktabining salohiyati va shon-shuhratini yana bir bor dunyoga namoyon etadi, degan umiddamiz.

F.RO'ZIBOYEV.

TAYINLOV

Salixov Shovkat San'atovich — Samarqand viloyati bojxona boshqarmasi boshlig'i etib tayinlandi.



Viloyat Kengashining yigirma to'qqizinchi sessiyasi 23-aprel kuni o'tkaziladi



Samarqandda mashinasozlik sanoat zonasi tashkil etiladi, ishlab chiqarish quvvatlari kengaytiriladi



Samarqand triatlon bo'yicha Jahon chempionati va para-triatlon bo'yicha Jahon kubogiga mezbon bo'ladi



Xususiy maktab davlat maktablaridan nimasi bilan farq qiladi?

YANGI TARAQQIYOT MARRASIDA

Oʻtgan yil 27-dekabr kuni davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan "Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish toʻgʻrisida"gi qaror asosida viloyatimizdagi barcha tuman va shaharlarni 2026-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish boʻyicha ustuvor vazifalar ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar hokimlar tomonidan xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasida taqdimot qililib, tasdiqlandi. Ayni paytda barcha tuman va shaharlarda belgilangan vazifalar ijroga qaratilgan. Bunda har bir tuman (shahar) ixtisoslashuvi, geografik joylashuvi, tabiiy xomashyo va yer resurslari hamda infratuzilmaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, qiyosiy ustunligi asosida "namunali va metodik" hududga aylantirilmoqda.

XO'SH, BU REJALAR NIMALARDAN IBORAT?

KATTAQO'RG'ON TUMANI



BANDLIK TA'MINLANIB, KAMBAG'ALLIK QISQARADI

Aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlar keng qamrovli va manzilli yondashuv asosida amalga oshiriladi.

Jumladan:

- "Bandlik organlari – ish beruvchilar hamkori" loyihasi orqali mingdan ortiq aholi ish bilan ta'minlanadi;
- "Mehnatsevar ayol" dasturi orqali iqtisodiy nafaol xotin-qizlar bandligiga erishiladi;
- "Teng imkoniyat – inklyuziv bandlik" dasturi orqali nogironligi boʻlgan shaxslar ishga jalb qilinadi;

Yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan maxsus dasturlar amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, kambag'al oilalarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularga moliyaviy yordam ko'rsatish va daromadli faoliyatga yo'naltirish orqali minglab oilalar kambag'allikdan chiqariladi.

Joriy yilda 175,6 million dollar miqdorida xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish rejalashtirilgan. Buning asosiy qismi manzilli va istiqbolli loyihalar hissasiga to'g'ri keladi.

Hududiy investitsiya dasturlari doirasida 100 million dollarlik 105 ta loyiha amalga oshiriladi, sanoat, xizmatlar va qishloq xo'jaligi sohalari qamrab olinadi.

Eksport hajmini 27,8 million dollarga yetkazish, eksportchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash, xalqaro standartlarni joriy etish va Yevropa ittifoqi bozoriga chiqish imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim vazifalardan hisoblanadi.

INFRATUZILMA RIVOJLANTIRILADI

Hududda uy-joy qurilishi, yo'llar, ichimlik suvi, energetika va kommunal xizmatlar sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshiriladi.

Jumladan, ko'p qavatli uylar qurilishi va ta'miri, yo'llarni rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmoqlarini kengaytirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish rejalashtirilgan.

Joriy yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini 6554,1 milliard so'mga yetkazish rejalashtirilgan bo'lib, bu sohada innovatsion texnologiyalar keng joriy etiladi.

Bunda yuqori hosildorlikka erishish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, intensiv bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish, chorvachilik va parrandachilikni kengaytirishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, yer resurslaridan samarali foydalanish, yangi agrosanoat zonalarini tashkil etish va eksportbog mahsulotlar yetishtirish rejalashtirilgan.

Ta'lim sohasida maktablar sifatini oshirish, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, o'qituvchilar malakasini oshirish va o'quvchilarning bilim darajasini yuksaltirishga qaratilgan choralar ko'riladi.

Sog'liqni saqlash sohasida aholini om-

mavi skринingdan o'tkazish, kasalliklarni erta aniqlash, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, zamonaviy diagnostika markazlarini tashkil etish ishlari amalga oshiriladi.

Yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Bu borada sport va madaniy tadbirlar, ta'lim va kasbga o'qitish dasturlari, yoshlar o'rtasida tanlov va festivallar tashkil etiladi.

OILA VA XOTIN-QIZLAR QO'LLAB-QUVVATLANADI

Xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, ularni kasb-hunarga o'qitish va tadbirkorlikka jalb qilish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Shuningdek, oilaviy nizolarni bartaraf etish, ayollarni himoya qilish, gender tenglikni ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshiriladi.

2026-yil uchun belgilangan chora-tadbirlar hududni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan kompleks dasturni tashkil etadi. Iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish, aholi bandligini ta'minlash, infratuzilmani yaxshilash va ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi farovonligi sezilarli darajada oshishi kutilmoqda.

Mazkur chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish orqali hudud iqtisodiyoti barqaror o'sish yo'liga chiqadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va aholining turmush darajasi yaxshilanadi.

Xurshida ERNAZAROVA.

Ishtixon yaqin yillargacha to'liq agrar tarmoqqa ixtisoslashgan tuman edi. Keyingi yillarda tadbirkorlikni rag'batlantirish, sanoat sohasini rivojlantirishga qaratilgan e'tibor tufayli tumanda qurilish materiallari va oziq-ovqat tarmoqlari sanoat sohasidagi drayver yo'nalishlarga aylangan. Masalan, tumanda 2025-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1129,7 milliard so'mni, o'sish sur'ati 109,1 foizni tashkil etgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari hajmi 3962 so'mga yetgan.

Sanoat rivoji

xomashyozaxirasiga bog'liq(mi?)

Sanoat rivojlanishining dastlabki bosqichi qayta ishlash bosqichi hisoblanadi, - deydi tuman hokimining birinchi o'rinbosari Qosim Nuriddinov. – Qayta ishlash esa xomashyo turi va mavjudligiga bog'liq. Shundan kelib chiqib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarayotgan korxonalarimiz orasida uzumni qayta ishlash ulushi kengayib bormoqda. Chunki bizda eksportda talab yuqori bo'lgan mayizbop uzumning xomashyo bazasi katta. Hozirda 16 ming gektar tokzor bor. Yetishtirilgan mahsulot ichki bozor ehtiyojidan ortib, eksportga chiqariladi. Hozir "Urgut" erkin iqtisodiy zonasining tumandagi filialiga kirayotgan korxonalar ham mavjud xomashyo bazasidan kelib chiqib, uzumni qayta ishlashga ixtisoslashmoqda. Masalan, "Ishtixon metan agrosanoat" eksportyor korxonamiz o'tgan yili mayiz, quruq meva va dukkakli mahsulotlardan 8 million dollarlik eksportni amalga oshirdi. Tumandan 2025-yilda Eron, Xitoy, Rossiya davlatlariga 12 million dollarlik qishloq xo'jalik mahsulotlari eksport qilingan bo'lsa, shuning asosiy qismini mayiz tashkil qildi.

Zarband mahallasi hududida yirik marmar zaxirasi mavjud. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoya asosidagi Xitoy korxonasi bo'sh turgan binoda marmarni qayta ishlashni yo'lga qo'ygan. Hozir shu korxona tumanning Odil mahallasidan 2 gektardan ortiq maydonni 1,2 milliard so'mga xarid qilib, marmarni qayta ishlashda ikkinchi bosqichni amalga oshirmoqda.

Tumanda 2026-yil yanvar oyida 116,5 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan va 9,4 foiz o'sish kuzatilgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari hajmi 408,4 ming so'mni tashkil etmoqda. Yil yakuni bilan sanoat sohasida ishlab chiqarish hajmini 1416,3 milliard so'mga yetkazish rejalashtiril-

gan. Buning uchun qiymati 513 milliard so'mlik 8 ta yangi sanoat loyihalari ishga tushiriladi hamda mavjud korxonalarning to'liq quvvatda ishlashi ta'minlanadi. Masalan, qiymati 9 milliard so'm bo'lgan "ISHTIXON METAN AGRO SANOAT" MChJ tomonidan dukkakli mahsulotlarni saralash va eksportga yo'naltirish loyihasida 10 ta yangi ish o'rni va 25 milliard so'mlik quvvat yaratiladi. "ISHTIXON MEGA STAR INVEST" MChJ 15 nafar ishchi bilan santexnika va gigiyenik mahsulotlar ishlab chiqarishni boshlamqda. Qiymati 9,5 milliard so'mlik loyiha ishga tushsa, yiliga 11 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqariladi.

Kichik sanoat korxonalari bilan ishini faol yo'lga qo'yib, ularda ishlab chiqarayotgan mahsulotlari uchun yangi bozorlar topish, yirik qiyinchilik tug'dirmoqda, - deydi Q.Nuriddinov. - Hozirda Chinorte-pa, Qo'ng'iro't, Qirg'iqiy mahallalarimiz ommaviy ravishda suzmadan qurt tayyorlashga ixtisoslashgan. Suzmani qo'shni tumanlar, Navoiy, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlaridan keltirishadi. Bu yilgi rejalarmizga ko'ra, yana 11 ta mahalla chuqur ixtisoslashtiriladi va foizsiz ssuda ajratish orqali 2 ta mahalla ixtisoslashuvi amalga oshiriladi.

Albatta, yashirin iqtisodiyotning oldini olish va korxonalarni sog'lomlashtirish bugungi kundagi asosiy vazifalardan hisoblanadi. Joriy yil 1-mart holatiga ko'ra, tumanda 445 ta sanoat korxonasi ro'yxatdan o'tgan va ulardan 286 tasi ishlamoqda,

ammo 159 tasi turli sabablarga ko'ra faoliyat yuritmayapti. Hozirda 32 yo'nalishtda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va ishlamayotgan korxonalarni sog'lomlashtirish uchun 111 milliard so'mlik qo'shimcha manba topish bo'yicha reja-jadval ishlab chiqqanmiz. Rejaga asosan sanoat korxonalarni o'rganish, soliq imtiyozlari berish hisobidan ishlamayotgan korxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish choralari ko'rilmoqda.

2025-yilda tumandagi 23 ta korxona tomonidan 20 turdagi 22,4 million dollarlik mahsulot eksport qilingan va 2024-yilga nisbatan eksport ko'rsatkichi 2,4 foizga o'sgan. Joriy yilda esa tumanda 28,1 million dollarlik mahsulot eksport qilish rejalashtirilgan va yilning dastlabki oyida 1,5 million dollarlik mahsulot xorij bozorlariga kirib bordi.

O.QO'ZIBOYEV.

SHINJON USULI

AN'ANAVIY PAXTACHILIKDAN QANCHALIK AFZAL?

Asosiy afzalliklar – kam xarajatlilik, yoqilg'i va resurstejamkorligi, gektariga 20-22 kilogramm urug' sarflanishi, qo'shqator ekilishi hisobiga gektariga 220-240 ming tup ko'chat olinishi, demoqda mutaxassislar.

O'tgan yili 9,3 ming gektar maydonda "Xinlu-zo-78", "Xinlu-zo-57", "Xinlu-zo-52" hamda "Xinlu-zo-55" navlari ekilganligi yuqori samara berdi, - deydi viloyat qishloq xo'jalik boshqarmasi shoxba boshlig'i Toyir Du-



vlanov. - Ushbu navlarning glifosatga va ko'sak qurtiga chidamliligi hisobiga begona o'tlardan tozalashda ishchi kuchiga ehtiyoj bo'lmaydi, gertsidlar yordamida o'tdan tozalanadi. Shu bois o'tgan yil xorijiy navlardan o'rtacha 50-60 sentner, ayrim fermerlarimiz 65-70 sentnergacha hosil oldi.

Misol uchun, Ishtixon tumanidagi

"Ishtixon oltin yerlari" fermer xo'jaligi gektaridan 74,5 sentner, "Domla Abroriy" fermer xo'jaligi 61,7 sentner, Kattaqo'rg'on tumanidagi "Azimxon Rizonov" fermer xo'jaligi 67 sentner, "Petrol agrobiznes" fermer xo'jaligi 68,7 sentner, Payariq tumanidagi "Jahongirbek agro baraka zamin" fermer xo'jaligi 67,3 sentner, Oqdaryo tumanidagi "Shaxnoza nozanin omadli" fermer xo'jaligi 68,5 sentner hosildorlikka erishdi.

Yana bir masala, keyingi yillarda yetishtirilgan paxta xomashyosini terib olishda qo'l kuchidan butunlay voz kechish va to'liq mexanizatsiya yordamida terib olishga o'tish kerakligini barcha klasterlar ham, fermerlar ham tushunib yetdi. Shu bois 2025-yil paxta terim mavsumida Xitoydan olib kelingan 119 dona yuqori unumli paxta terish mashinasi yordamida 162 ming tonna (61 foiz) paxta xomashyosi terib olindi.

2026-yil hosili uchun ham 60 ming gektar maydonga chigit ekish ishlari boshlab yuborildi. Rejaga ko'ra, ushbu maydonlardan 310 ming tonna paxta xomashyosi tayyorlash va o'rtacha hosildorlikni 52 sentnerga yetkazish ko'zda tutilgan. Bu 2025-yilga nisbatan 7,4 sentner ko'p hosildorlik demakdir. E'tibor bergan bo'lsangiz, maydon o'zgarimasdan hosildorlik yil sayin oshmoqda. Buning asosiy omili zamonaviy agroteknologiyalardan va hosildor navlardan foydalanishda bo'lishmoqda. Qolaversa, o'g'itlash, sug'orish, qo'l mehnati va texnika yordamida ishlov berishning kamayganligi hisobiga xomashyoning tannarxi ham pasaymoqda.

Bu yil 32,5 ming gektarga xorijiy 27,5 ming gektar maydonda mahalliy navlar ekiladi. Ya'ni, xorijiy nav ekiladigan maydonlar o'tgan yilga nisbatan sezilarli darajada ortdi. Yuqori hosildorlikka erishish uchun 33 ming gektar (55 foiz) maydonda 76x10 santimetrli qo'shqator sxemada chigit ekiladi. Jumladan, 19,8 ming gektarida "Shinjon" usulida plyonka ostiga, tomchilatib sug'orish tizimini joriy qilgan holda g'o'za parvarishlanadi.

ENDI 50 SENTNER MARRA EMAS

Keyingi yillarda fermerlarimiz paxtachilikda yuqori hosildorlik evaziga ko'proq daromad olishlarini tushunib, shunga yarasha mehnat qilmoqdalar.

Eng asosiysi, ko'plab fermerlar o'zlari tashabbus ko'rsatib, yangi intensiv va innovatsion agroteknologiyalarni qo'llab, tajribali mutaxassislar bilan hamkorlikda mehnat qilib kelmoqdalar.

Fermerning mehnatidan manfaatdorligi ortsa, u yanada kuch-g'ayrat bilan mehnat qiladi, ilgari yondashib, zamonaviy tajribalarni joriy qiladi, xarajatlarni kamaytirish va daromadni oshirish imkoniyatlarini o'rganadi. Asosiysi, yetishtirilgan mahsulotning yuqori sifatli va xaridorgiriligini ta'minlaydi.

Yetti yil avval fermer xo'jaligimizni tashkil qilganmiz va yaqin gacha an'anaviy usulda paxta yetishtirardik, - deydi Ishtixon tumanidagi "Ishtixon oltin yerlari" fermer xo'jaligi boshlig'i Shahobiddin Shukurov. – O'tgan yili 1750 gektar maydonda Shinjon usulida g'o'za parvarishlab, 13 ming tonnadan ortiq xomashyo yetishtirdik, gektaridan 74,5 sentnerdan hosil oldik. Yer tayyorlash har ikki usulda bir xil ekan. An'anaviy usulda 90 santimetrli qatorda 100-120 ming tup g'o'za parvarishlardik va hosil tayyor bo'lguncha 15 martagacha texnikada ishlov berilardi, qo'l mehnati va suv sarfi yuqori edi. O'sha paytda gektardan 50 sentner hosil olish eng yuqori natija hisoblanardi.

Ikki usulning farqiga keladigan bo'lsak, mahalliy urug'ning kilogramini 30 ming so'mdan olgan bo'lsak, yangi g'o'za navida urug'ning kilogramini 55 ming so'mdan xarid qilaymiz. Lekin bu usulda 76 santimetrli qatorda plyonka ostiga gektariga 220-240 ming tup g'o'za ekiladi, tomchilatib sug'orish tizimi ham ekish jarayonida amalga oshiriladi. Chopiq, kultivatsiya, qator olish, yagonalash, dorilash bo'lmaydi, faqat ikki marta texnik ishlov beriladi, o'g'it tomchilatib sug'orish yo'li bilan beriladi. Suv sarfi va ishchi kuchi tejalandi. Katta maydon uchun ham bir nafar ishchi yetarli bo'ladi. Terim ishlari to'liq mashinada bajariladi. Umuman olganda bu usulda qo'l mehnati deyarli bo'lmaydi. Shuning uchun joriy yilda 1800 gektar maydonga Shinjon usulida g'o'za ekyapmiz va gektariga 75 sentnerdan ortiq hosildorlikka erishish niyatidamiz.

Bu yil chigit ekishda xorijdan keltirilgan 252 ta ko'p funksiyali seyakalardan foydalanildi. Terim ishlari uchun hozirgacha 119 ta mashina keltirilgan bo'lsa, joriy yilda yana 20 ta mashina olib kelish rejalashtirilgan.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

"Zarafshon"ning maxsus muxbiri.

QORNING OLTİ QİRRASI

Amerika, Isroil va Eron urushi nafaqat dunyo xalqlarini, hatto turli jamoalar va oilalarni ham ikkiga bo'lib yubordi. Aka Eron tarafdori bo'lsa, aka Amerikani yoki ota birini yoqlasa, o'g'il ikkinchisining yonini olib turganiga guvoh bo'laypmiz. Bu mutlaqo tabiiy hol. Chunki Rossiya va Ukraina orasida davom etayotgan qonli urushda ham, garchand adolat, haqiqat kim tomonida ekanligi aniq va ravshan ko'rinib turgan bo'lsa-da bosqinchilar tarafini olgan, hatto harbiy harakatlarda ishtirok etayotgan odamlar bor. Ma'lumotlarga qaraganda, hozir mingdan ziyod yurtdoshlarimiz Rossiya tomonida turib jang qilayotgan ekan. To'g'ri, ular balki iqtisodiy muammolarini hal qilish uchun shu yo'lga kirgandir! Ammo nima bo'lganda ham, davlatimiz qonunlarini buzib, pul uchun xorij armiyasiga yollanish, buning ustiga, bosqinchilar bilan bir safda turish o'zbeklar va har bir o'zbekistonlik uchun isnod. Albatta, oddiy kishilarning u yoki bu tomonni yoqlab gapirishi odatiy hol. Biroq ayrim nufuzli ommaviy axborot vositalarining, jurnalistlar, publitsistlar, sharhlovchilar va bloggerlarning turli tomonda turishlari bo'lmag'ur ish. Masalan, AQShdagi "Fox news" nashri ushbu urushda Amerikaning olamshumul g'alabasi haqida ko'pirib, toshib xabar tarqatayotgan bo'lsa, "The New York times" gazetasi bu urush Trampning og'ir mag'lubiyati ekanligini yozmoqda. Shu ma'noda, hech bo'lmasa, bloggerlar va jurnalistlar har qanaqa holatda voqealarga xolis baho berishlari zarur. Bu borada tarqashlik qilish, yolg'on xabarlar tarqatib, odamlar fikrini chalg'itish kerak emas.

E'tibor berganimiz, yoqangizga qo'nyotgan qor parchalaridagi naqsh va jimjimalar turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Ammo barchasi bir xil - olti qirrali. Buning sirini olimlar zarrabin - mikroskop ixtiro qilganidan keyingina kashf etishdi. Ma'lum bo'lishicha, suv molekullari aynan qor zarrasidek olti qirrali ekan. Fizikadagi ushbu qonuniyatning xalqaro siyosatga qanaqa aloqasi bor, deyishimiz mumkin. Ajablantirishi, jamiyatdagi ayrim voqealar ham tabiat hodisalariga o'xshab ketadi. Tarixiy voqealar o'sha dastlabki kichik matritsa shakli negizida rivojlanadi va oxir-oqibat molekula qor parchasiga, qorparchasi katta qorga, qor esa ulkan uyumga, uyum dahshatli ko'chikiga aylanib, odamlar boshiga ko'p noxushliklar paydo qilganidek holat yuzaga keladi.

Tarixdan olib ko'radigan bo'lsak, oktabr inqilobidan so'ng sobiq sho'ro davlati ideologiyasi xususiy mulkchilikni qonundan tashqari deya e'lon qildi va kommunistik mafkurani butun dunyoga yo'yishni asosiy maqsad qilib oldi. "Butun dunyo proletarlari, birlashingiz!", degan chaqiriq har kuni, har soatda yangrab turdi. Inqilobiy mafkura qo'riqchilari bu borada mislsiz tadbirlarni amalga oshirib, xalqni pati yuligan tovuqqa o'xshatib qo'ydi. Bu ishlarning oqibati yaxshilik bilan tugamasligini sezgan Vladimir Lenin zudlik bilan "Yangi iqtisodiy siyosat"ni joriy etib, yosh sho'ro davlati iqtisodiyotini halokat jarligidan uzoqlashtirgandi. Ammo uning o'rniiga kelgan Iosif Stalin iqtisodiyotni yana qayta kommunistik o'zanga soldi va to umrining oxirigacha xususiy mulkchilikka va tashqi dushmanlarga qarshi qat'iy kurash olib bordi. Undan keyin hokimiyat tepasiga kelgan Nikita Xrushchev ichki va tashqi siyosatda birmuncha o'zgarishlar qilgan bo'lsa-da, Brejnevning yangi siyosati uning islohotlari samarasini yo'qqa chiqardi. O'tgan asrning 80-yillariga kelib, mamlakat yana og'ir iqtisodiy inqiroz yoqasiga kelib qoldi. Bu borada islohotchi rahbar Mixail Gorbachyovning zudlik bilan amalga oshirgan tadbirlari ham mamlakatni tanazzuldan qutqara olmadi va buyuk bir saltanat halokatga yuz tutdi. Buning asosiy sababi o'sha sho'ro imperiyasining dastlabki kunlaridan joriy etilgan siyosiy dastur oxir-oqibat uni halokat sari boshlab bordi. Eron bilan bog'liq voqealarda ham xuddi shunga o'xshash manzarani ko'ramiz.

DEMOTEOKRATIYA
UCHUN KURASH

1979-yil Eronda islom inqilobi sodir etilganiga qadar dunyodagi barcha davlatlar bilan yaxshi qo'shnchilik aloqalari o'rnatilgandi. Hatto bugungi qattol dushmani - Isroil ham Eronning yaqin hamkorlaridan biri bo'lib, uni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlashga hissa qo'shib kelayotgandi. Hozirda atom qurolini yaratishga urinayotgan eronlik olimlarning ustozlari bir vaqtlar yadro fizikasini AQSh va Isroildagi laboratoriyalardan o'rganib kishilargandi. Eron kapitalistik dunyoning Yaqin Sharqdagi yaqin hamkorlaridan biri bo'lib, u yerda Amerikaning yirik harbiy bazalari, korxonalari joylashtirilgandi. Shoh hukumati mamlakatga G'arb madaniyatining kirib kelishiga keng yo'l ochib qo'ygandi. Uning yuritayotgan bu siyosatidan mamlakat ichidagi radikal diniy guruhlar, atrofida islomiy davlatlar, shimolda esa o'sha paytda qudrati kuchaygan sobiq SSSR turli sabablarga ko'ra qattiq norozi edi. Ular barcha vositalarni ishga solib, Eronda shoh siyosatini izdan chiqarishga harakat qilardi va 1979-yilda g'arbparast monarxiya xalq g'alayonlari oqibatida ag'darildi. Shohning o'zi xalq g'azabidan qo'rqib, chet elga qochib ketdi. Shia ruhoniylari bo'sh qolgan hokimiyatni darhol o'z qo'llariga oldi. Ular bu voqealarni "Islom inqilobi" deya atab, rahbarlik uchun o'zlarining diniy liderlari - Oyatillo Humayniy Parijdan Eronga keltirib, rahbar etib tayinlashdi. Ruhoniylar hokimiyatga o'rnatib olgach, davlat to'ntarishini amalga oshirishda ularga ko'maklashgan respublikachilar, demokratlar, kommunistlar, xullas, o'zlaridan o'zgacha fikrlaydigan barcha kishilarni quvg'in ostiga olib, birma-bir yo'q qilishni boshladi. Bir so'z bilan aytganda, inqilob o'z farzandlarini yeyishga kirishdi. "Tarix takrorlanmaydi, qofiyalanadi", degan qanotli ibora bu gal ham to'liq o'z tasdig'ini topdi. O'tgan asrning 30-yillarida bolsheviklar o'z safdoshlarini qanday qatag'on qilgan bo'lsa, Eron ruhoniylari islom inqilobi qo'riqchilari yordamida muxolif kuchlarning ovozi o'chirishga erishdi. Mamlakatda hurfikrlik, g'ayridiniy madaniyat, san'at, musiqa va hatto qo'shiq aytish ham taqiqlab qo'yildi. Gugush va Muinga o'xshash

atoqli san'atkorlar quvg'in qilindi. Mamlakatda erkaklarga alkogol, ayollarga esa boshini ochib yurish qat'iy taqiqlandi. Oqibatda o'zgacha fikrlaydigan millionlab eronliklar vatanni tark etishga majbur bo'ldi. Bu ishlarning nazoratini sobiq SSSR KGBsidan andoza olib tuzilgan islom inqilobi qo'riqchilari korpusi shafqatsizlik bilan uddaladi. Bunday bedodliklarga mamlakatdagi muxolif kuchlar qarshi chiqolmadi. Nega desangiz, endi g'isht qolipdan ko'chib, kech bo'lgandi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, hozirgi urush arafasida ham sodir etilgan xalq g'alayonlarining minglab ishtirokchilari shafqatsiz yo'q qilindi yoki hibsga olindi. Ularning bor-yo'q gunohi: hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosatga qarshi norozilik edi. Haqiqatan ham ruhoniylar rejimi mamlakat boyliklarining asosiy qismini xalq farovonligi uchun emas, balki zo'r berib qurollanishga sarflayotgan edi. Natijada Eron qisqa muddat ichida xalqaro cheklolarga qaramasdan, mintaqadagi eng kuchli harbiy davlatga aylandi. Atom-raketa qurollarini yaratish uchun jiddiy kirishildi.

Tabiat va jamiyat qonunlari shundayki, har qanday harakat aksilharakatni paydo qiladi. Diniy rahnamolar boshqaruvdagi nobop siyosat oxir-oqibat o'zining muqarrar inqirozini tezlashtirdi. Eski yil oxirlarida boshlanib ketgan xalq g'alayonlari Eronning tashqi siyosatidan shundoq ham norozi bo'lib yurgan katta kuchlarni ilhomlantirib, jiddiy qurolli mojaroni keltirib chiqardi. Ba'zilar buni Uchinchi jahon urushi, deya fikr bildirishmoqda. Ammo bunda koalitsiyalar mavjud emasligi va yirik davlatlarning qo'shilmaganligi ushbu ziddiyatni mintaqaviy mojaroga, deb atashga to'liq asos bo'la oladi.

Endi uning sabablarini haqida to'xtaladigan bo'lsak, yana tarixga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

G'OLIBLAR VA MAG'LUBLAR

Yuqorida yozganimizdek, shoh davrida Tehron AQSh va Isroil bilan o'ta yaqin aloqa bog'lagandi. Eronda minglab yahudiylar, amerikaliklar mamlakat xalq xo'jaligining turli sohalarida faoliyat ko'rsatardi. Mullalar hokimiyatni o'z qo'llariga olgach, dastlabki qilgan ishi mamlakatdagi barcha xorij sarmoyasi

► Siyosiy sharh

bilan ishlaydigan korxonalarni milliylashtirdi. Bu tadbir sobiq SSSR boshliq sobiq sotsialistik mamlakatlarning olqishiga sazovor bo'ldi. Ammo bundan birgina AQSh kompaniyalari va shirkatlari o'sha davr narxlarini bilan hisoblaganda 200 milliard dollarlik zarar ko'rdi. G'arb mamlakatlari tomonidan berilgan sanoat uskunolari hamda harbiy texnikalar ham to'liq yangi hukumat foydasiga o'zlashtirildi. Tabiiyki, bular sarmoyadorlar tomonidan achchiq og'riq bilan qabul qilindi. Buning ustiga xalqning milliy-diniy hissiyotlarini junbushga keltirgan ruhoniylar ochiq aksilg'arbiy kayfiyatlarini targ'ib qilishdi. "Amerikaga o'lim!", "Yo'qolsin Isroil!" singari jangovar shiorlar baralla yangray boshladi. AQSh "katta shayton", Isroil esa "kichik shayton" deya e'lon qilindi. O'tgan asrning 80-yillari oxirida oliy ruhoniylar Oyatillo Humayniy Mixail Gorbachyovga maktub yo'llab, birgalashib AQSh boshliq imperialistik dunyoga qarshi ittifoq tuzishni taklif qildi. Eronda dindorlar hokimiyati va avtoritar tizim yildan yilga mustahkamlanib, kuchayib bordi va alaloqibat, jamiyatni boshqaruvchi yagona yakka-hokim kuchga aylandi. Garchand, mamlakatda rasman prezident, parlament va saylovlar instituti faoliyat ko'rsatasa-da, ular ishini yo'naltirib, oxirgi qarorni chiqaruvchi diniy rahbarning maqomi barchasidan ustuvor qilib qo'yilgan va hokimiyatlar mustaqilligi haqida gap bo'lishi ham mumkin emasdi. Bu holat uzoq yillar davomida mamlakat jipsligini ta'minlab turgan asosiy omil bo'lsa ham Eronni asta-sekin demokratik dunyodan ihtotalab qo'yg'an o'ziga xos qafasga aylanib qolgan. Xorijiy mamlakatlarni do'st va dushmaniga ajratish va shu yo'sinda muomala qilish muvaffaqiyatsiz usul bo'lib, oxir-oqibat davlatning xalqaro maydonda yakkalanishiga va sanksiyalar bosimi ostida qolib ketishiga sabab bo'ldi. Agar e'tibor qaratgan bo'lsangiz, AQSh xuruji paytda biror-bir mamlakat - na Xitoy, na Rossiya, na Hindiston, na Pokiston va na boshqa biror yirik davlat Eronga yordamga shoshilmadi. Ular faqat urushayotgan tomonlarni murosas qilishga va harbiy harakatlarni to'xtatishga da'vat etib turishdi, xolos. Ana endi shunday holat yuzaga keldiki, har ikki tomon ham o'zini g'olib, deb hisoblamogda. Shu bois bir-biriga yon bergisi kelmayapti. Eronning boshqaruv va harbiy tizimlari katta talafotga uchragan bo'lsa-da, inqilob qo'riqchilari raqiblarga zarracha bo'sh kelmoqchi emas. Ular bugunning o'zidayoq son-sanoqsiz piyoda qo'shinlari jangga tashlab, mutlaq g'olib bo'lishiga qattiq ishonmogda. Bu yo'lda qancha insonlarning qirilib ketishi ularning xayollariga kelmayapti. Ammo ikkinchi tomon ham o'z talablaridan voz kechmayapti. AQSh Eronni yadro quroli yaratishdan tiyilib, boyitib qo'yilgan uran zaxiralarini topshirishini talab qilmoqda. Biroq eronlik mag'rur rahbarlar bu taklifni keskin rad etishmogda.

Endi bu talotumlarning boshida turgan Trump haqida aytadigan bo'lsak, u o'zini o'ta yaxshi ko'radigan, pixini yorgan odam. Uning na milliy, na diniy va na dunyoviy qadriyatlar bilan mutlaqo ishi yo'q. Agar foydasi tegsa, ashaddiy diktatorlar, dindorlar bilan ham kelishib keta oladigan dog'uli biznesmen. Uning hozirgi asosiy maqsadi - Amerikani yanada boyitib, dunyodagi liderlik maqomini yanada mustahkamlash va shu orqali tarix sahifalariga o'z nomini zarhal harflar bilan yozdirish. Shu bilan birga, unda yildan yilga kuchayib borayotgan Xitoyning piligini biroz pasaytirib qo'yish niyati ham yo'q emas. Xitoyni energiya resurslari bilan ta'minlab turuvchi asosiy manba esa Erondir. Ushbu maqsadlar yo'lida u hatto, shayton bilan ham kelishuvga tayyor. Ammo yo'liga g'ov bo'ladigan har qanday to'siqni ayamayo'q qilib tashlashdan sira tap tortmaydi.

Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Akramov Naimga (2015-yil 19-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasida marhum Gul'yamov Farxodga (1999-yil 10-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Soniy ko'chasi, 1-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasida marhum Kurbanov Altinboyga (2008-yil 9-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Karayeva Gulchiraga (2024-yil 30-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich

notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farux Farxodovich notarial idorasida marhum Raxmatova Zurafo Madjidovna (2025-yil 7-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Xaydarov Baxtiyor Suvanovichga (2022-yil 4-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida marhum Turayev Maxmud Yarkulovichga (2026-yil 12-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 90-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida marhum Xodjayeva Sayyora Mirzayevnaga (2019-yil 5-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu

munosabat bilan merosxo'rlarning Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 90-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Djallilov Nosirga (2017-yil 6-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Nasimova Maxfizaga (2023-yil 13-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Mizamov Fayzullaga (2015-yil 28-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Mamatxanov Xusen Mirzayevichga

(2025-yil 28-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Tursunov Tolibga (2011-yil 25-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Narzillayeva Rahmat Inoyatovichga (2025-yil 23-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasida marhum Ergashev Pardaga (2012-yil 16-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, 117-"B" uy. Mo'ljal: Samarqand viloyat IIB YHXB, shahar mudofaa ishlari bo'limi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot

bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosimov Jamshid Sayfiddinovich notarial idorasida marhum Maxmudova Sofiya Muminovnaga (2020-yil 16-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nurqosimov Jamshid Sayfiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Panjob ko'chasi, 4-uy.

BEKOR QILINADI
Nurobod tumanidagi "UZBEGIM BOG'1" fermer xo'jaligining (STIR: 305465414) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Past Darg'om tumanidagi "MAXKAMOV BARAKASI" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 312773550) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Toshkent shahri Yakkasaroy tumanidagi "IDEYA CONSULT" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 311789111) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!
Fuqaro Adashev Otabek Elmurod ug'lining haydovchilik guvohnomasi (JSHSHIR: 30209976130053) Urgut tumani hududida tushurib qoldirilgan. Ushbu haydovchilik guvohnomasini topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99894-180-90-55.

O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi faxriy jurnalist
Yorqin YO'LDOSHEVning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.

Sun'iy intellekt: imkoniyatmi yoki ...

Bugun dunyo tez sur'atlarda o'zgarimoqda. Kechagina xayoliy bo'lib tuyulgan texnologiyalar bugungi kunning oddiy voqeligiga aylandi. Shu texnologiyalar ichida eng ko'p muhokama qilinayotgani — sun'iy intellekt (SI). U inson hayotining deyarli barcha sohalariga kirib kelmoqda: ishlab chiqarishdan tortib ta'limgacha, tibbiyotdan davlat boshqaruvigacha.

Bu o'zgarishlar oddiy texnologik yangilik emas. Bu — butun iqtisodiyot va jamiyatni o'zgartiruvchi jarayon. O'zbekiston ham bu jarayondan chetda emas. Aksincha, mamlakat aynan shu bosqichda o'z kelajagini belgilab olmoqda.

YANGI DAVR ESHIGI OCHILMOQDA


O'zbekiston so'nggi yillarda raqamli rivojlanish yo'lidani dadil qadam tashlamoqda. Davlat xizmatlarining elektron shaklga o'tishi, IT sohasiga berilayotgan e'tibor, yoshlar orasida dasturlashga bo'lgan qiziqish — ularning barchasi yangi davr boshlanganini ko'rsatadi.

Sun'iy intellekt esa ana shu o'zgarishlarning markazida turibdi. U oddiy avtomatlashtirishdan farqli ravishda o'rganadi, tahlil qiladi va mustaqil qaror qabul qilishga yaqinlashadi. Bu esa uning imkoniyatlarini bir necha baravar kengaytiradi.

Sun'iy intellekt iqtisodiyot uchun katta imkoniyatlar eishigini ochmoqda. Masalan, ishlab chiqarishda avtomatlashtirish orqali vaqt va resurslar tejiladi. Korxonalar kamroq xarajat bilan ko'proq mahsulot ishlab chiqarishi mumkin.

Bank va moliya sohasida esa SI allaqachon o'z samarasini ko'rsatmoqda. U mijozlarning moliyaviy holatini tahlil qilib, kredit berishda aniq qaror chiqarishga yordam beradi.

Qishloq xo'jaligida esa bu texnologiya fermerlariga yordamchiga aylanmoqda. Yer holati, ob-havo va hosildorlik haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali to'g'ri qaror qabul qilish mumkin bo'ladi. Bu mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi uchun juda muhim.



Sun'iy intellekt ta'lim tizimini ham o'zgartirayapti. Endi har bir o'quvchiga individual yondashish mumkin. Kimdir tez o'rganadi, kimdir sekin — SI bu farqni hisobga olib, har bir insonga mos ta'lim dasturini taklif qilishi mumkin.

QULAYLIK ORTIDAGI XAVF

Biroq har bir taraqqiyotning ikkinchi tomoni ham bor. Sun'iy intellekt ham bundan mustasno emas. Eng katta xavflardan biri — ishsizlik. Avtomatlashtirish natijasida ko'plab oddiy kasblar yo'qolib ketishi mumkin. Masalan, kassirlar, operatorlar yoki ba'zi ishlab chiqarish xodimlari o'rnini mashinalar egallashi ehtimoldan xoli emas. Bu esa ayniqsa, aholisi ko'p bo'lgan O'zbekiston uchun jiddiy muammo tug'dirishi

mumkin. Sun'iy intellekt yana bir muammoni keltirib chiqarishi mumkin — ijtimoiy tengsizlik. Texnologiyalarga ega bo'lganlar va ega bo'lmaganlar o'rtasidagi farq yanada kengayib ketadi. Katta kompaniyalar va yuqori malakali mutaxassislar Sldan daromad oladi, ammo oddiy ishchilar orqada qolishi mumkin. Bu jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda ma'lumotlar eng qimmat resursga aylanmoqda. Sun'iy intellekt esa aynan shu ma'lumotlar asosida ishlaydi.

Biroq bu yerda yana bir jiddiy xavf bor: shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi. Agar ma'lumotlar to'g'ri himoya qilinmasa, ularni suiste'mol qilish mumkin. Bu esa nafaqat iqtisodiy, balki milliy xavfsizlik masalasiga ham aylanadi.

QANDAY YO'L TUTISH KERAK?

O'zbekiston sun'iy intellektdan qanday foydalanishi kerak?

Birinch navbatda, ta'lim tizimiga e'tibor qaratish zarur. Yoshlar zamonaviy kasblarga o'rgatilishi, IT va SI sohasida malakali kadrlar tayyorlanishi kerak.

Ikkinchidan, huquqiy baza yaratilishi lozim. Sun'iy intellektdan foydalanish qoidalarini, ma'lumotlar xavfsizligi va etik normalar aniq belgilab qo'yilishi shart.

Uchinchidan, davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlik kuchaytirilishi kerak. Innovatsiyalar aynan shu hamkorlik orqali tez rivojlanadi.

Sun'iy intellekt — bu shunchaki texnologiya emas. U butun jamiyatni o'zgartirishga qodir kuch. U O'zbekistonni yangi bosqichga olib chiqishi ham mumkin, yangi muammolarni keltirib chiqarishi ham.

Hammasi bitta narsaga bog'liq: biz uni qanday qo'llaymiz?!

Agar to'g'ri yondashuv tanlansa, sun'iy intellekt O'zbekistonni nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun dunyoda raqobatbardosh davlatga aylantirishi mumkin. Aks holda, u yangi ijtimoiy va iqtisodiy muammolar manbai bo'lib qolishi mumkin.

Y.MARQAYEV.

Suyunov Abdusoli Samatovich — o'z hayotini ilm-fan, ta'lim va yoshlar tarbiyasiga bag'ishlagan fidoyi ustozlardan biri. U 1956-yil 15-aprel kuni Urgut tumanining Rahmatobod mahallasi, Saroy qishlog'ida tug'ilgan. Yoshlik yillaridanoq bilimga chanqoqlik va izlanish uning hayotiga yo'l ko'rsatuvchi yulduz bo'ldi. Buxorodagi mashhur "Mirarab" madrasasida o'qigan ma'rifatparvar bobosi Mirzobek o'g'li Suyunboy tarbiyasini olgani uning kamolotiga mustahkam zamin yaratdi. 1962-yilda 76-maktabga qadam qo'ygan Abdusoli keyinchalik Jartepadagi 20-o'rta maktabda o'qishni davom ettirib, uni a'lo baholar bilan tamomladi.

ILM-FAN FIDOYISI — USTOZGA ENTIROM



Ilmga bo'lgan muhabbat uni 1973-yilda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent politexnika institutiga olib keldi. 1979-yilda oliy ta'limni muvaffaqiyatli yakunlab, mehnat faoliyatini "Zarafshon" geologiya geofizika ekspeditsiyasida boshladi. Biroq uning haqiqiy yo'li ilm va ta'lim sohasi edi. 1981-yildan Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutida faoliyat yuritib, o'z hayotini pedagogika va ilmiy izlanishlarga bag'ishladi.

1986-yilda Lvov politexnika institutiga aspiranturaga yuborilib, qisqa vaqt ichida katta yutuqlarga erishdi. 1988 yilda geodeziya ixtisosligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini muddatidan oldin himoya qildi. Bu bilan cheklanib qolmasdan, 1994-yilda, 38 yoshida O'rta Osiyoda ilk bor mazkur yo'nalishda doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, texnika fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi.

Professor Abdusoli Samatovich ta'lim tizimini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan ustozlardan. Uning tashabbusi bilan muhandislik geodeziyasi kafedrasida amaliy geodeziya mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan mahsus kafedraga aylantirildi va bu yerda yuzlab malakali mutaxassislar tayyorlandi. Shuningdek, u respublika miqyosida kadastr xodimlari malakasini oshirish tizimini yo'lga qo'ydi, ilmiy maktab — "refraksiya maktabi"ga asos soldi.

Ustoz rahbarligida minglab bakalavrlar, yuzlab magistrlar va ilmiy xodimlar yetishib chiqdi. A.Suyunov universitetda geodeziya, kartografiya ixtisosliklari bo'yicha maxsus ilmiy kengash tuzib, unga raislik qilib keldi. Bugungi kunda uning o'ndan ziyod shogirdlari nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilib, PhD doktori ilmiy darajasiga erishgan,

yana bir nechtasi himoya qilish arafasida. Uning shogirdi dotsent A.Salohiddinov aspirantlar o'rtasida o'tkazilgan Respublika Prezidenti nomidagi Davlat stepindiyasi tanlovi g'olibi bo'ldi. Olimning shogirdlari bugungi kunda mamlakatimiz va xorijda o'z sohasining yetuk mutaxassislari sifatida faoliyat yuritmoqda.

A.Suyunov nafaqat sermahsul olim sifatida, balki mohir pedagog sifatida ham tanilgan. Uning qalamiga mansub 20 dan ortiq darslik va o'quv qo'llanmalar, 5 ta monografiya, 300 ga yaqin ilmiy maqola, patentlar va elektron ta'lim resurslari ta'lim tizimida keng qo'llanib kelinmoqda.

Uning xizmatlari munosib taqdirlanib, turli vazirlik va tashkilotlar tomonidan faxriy yorliqlar, mukofotlar bilan taqdirlangan. Shuningdek, u "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yilligi" ko'krak nishoni bilan ham mukofotlangan.

Abdusoli Samatovich yuksak insoniy fazilatlar sohibi. Xushmuomalaligi, kamtarligi, mas'uliyati va mehribonligi bilan hamkasblari, shogirdlari orasida hurmat-ehtiromlar qozongan. U yoshlarga nafaqat ilm, balki odob-axloq, insoniylik saboqlarini ham ulashib kelmoqda.

Bugungi kunda ustoz oila davrasida, umr yo'ldoshi Sofiyaxon aya, farzandlari va nabiralari bag'rida baxtli hayot kechirib kelmoqda.

Abdusoli Samatovichni muborak 70 yoshi bilan tabriklab, ustozga mustahkam sog'liq, uzoq umr, oilaviy baxt-saodat va ilm-fan yo'lidagi yanada ulkan yutuqlar tilab qolamiz!

FARRUX XUSHMURODOV, Qarshi davlat universiteti PhD doktori, dotsent. Shuhrat TO'XTAMISHEV, Samarqand davlat universiteti PhD doktori, dotsenti.



Do'stim badiiy ijod bilan ham pinhona shug'ullanib kelgan ekan. Buni menga mashqlarini yuborgandan keyin bilib qoldim. Afsuski, taniqli muallim og'ir xastalikdan so'ng 2011-yilning qishida, 60 yoshi arafasida olamdan o'tdi. U o'zidan besh nafar solih farzand qoldirdi. Uch qizi ota kasbini egalladi. Hozir o'g'li Nasimjon bilan Nusratullaning g'azal va hikoyalardan kitob tayyorlaymiz. Quyida esa uning bir juft g'azalini e'tiboringizga havola etamiz.

Farmon TOSHEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.

Kamolim sen

Sanam, subhi sabolardan so'rar so'zim, savolim sen,
Uzun tunlar o'tib bedor, surar o'yim, xayolim sen.

Asaldek so'zlaring tinglash muqaddas dil murodimdir,
Tiniq chehrang tiniqlikda qiyosi yo'q, zilolim sen.

Firoqing o'tida mahzun ko'ngil sendan najot istar,
Yurakda o'rnashib qolgan umid-orzu, visolim sen.

Ijozat ber, to'yay bir pas parixursor, uzoringga,
Chiroyd ne malaklardan o'tar sohib jamolim sen.

Yiroqda sen sharor yanglig' ziyo sochding, vale, afsus
Munavvar oy jamolingga yetish amri maholim sen.

Azizam, har mahal Nusrat xayol, yoding bilan bedor,
Ki, bu olam ichinda izlagan baxtu kamolim sen.

Nusratulla XIDIROV.

To'xta bir dam...

Yoshligim, gul fursating qisqa bo'lurmi shunchalik,
Kelding-u, o'tding ketib bir sham yonib o'chgunchalik.

Bo'lsa imkon, to'xta bir dam, bir nafas tark etmagin,
Bor halovat, lazzatingdan totinib ko'rgunchalik.

Men qadah oldim qo'lingdan, shodligimning cheki yo'q,
Sipqoray, kutgil, safosi-kayfini surgunchalik.

Zavqingga to'ymay ko'ngil afsusdadir, e voh, netay,
Qancha orzu birla armon qoldi qon yutgunchalik.

Ne umid birlan kelib Nusrat g'azal bo'stoniga,
Qo'l uzatsa, shoshmagin, bir dasta gul uzgunchalik.

VIJDONNING BUGUNGI SO'ROG'I



Farzandlar ko'z o'ngida
kitob o'qigan paytingizni
eslaysizmi?

«QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR»

Yaxshilik xislatlari:
taqvodorlik, to'g'rilik,
o'zini saklash, din-
dorlik, odillik, insoniy
kamtarlik, latofat,
sobitqadamlik, eh-
tiyotkorlik, saxiylik,
muloyimlik, siyosat va
boshqarish ishlarida
bilimdonlik, tadbir-
korlik, to'g'ri taxmin
qila bilish va bulardan
boshqa aqlga sig'may-
digan, kishi bayon etib
tugata olmaydigan
(yaxshi) sifatlardan
iboratdir.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:
soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi:
soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 852 nusxada chop etildi. Buyurtma 156. Hajmi 2 bosma taqdimot, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.